



OMMAVIY OFERTASI

**Onlayn NKM dasturiy ta'minoti va apparat ta'minotini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid
tm «SUPPORT Team»
(«SPECIAL TEXNO SOFT» MCHJ) NING**



www.support24.uz

06 iyul 2020-yildagi tahrir

«SPECIAL TEXNO SOFT» MCHJ
Texnik Xizmat ko'rsatish Markazi (TXM),

STIR 306 351 564, IFUT 58 290 ma'lumotlariga ega, yuridik manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., M. Ulug'bek ko'ch. 65, bir tomondan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor M. M. Inoyatov shaxsida, keyingi o'rinlarda **«Ijrochi»** deya yuritiladi, **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-b. 369-m.ga** muvofiq, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan, Ijrochi xizmatlaridan foydalanishni istovchi har qanday Yuridik shaxs yoki Xususiy tadbirkorga, keyingi o'rinlarda **«Buyurtmachi»** deya yuritiladi, onlayn nazoratkassa mashinalari (keyingi o'rinlarda Onlayn NKM deya yuritiladi) dasturiy ta'minoti va apparat ta'minotini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatish Oferta shartnomasini tuzishni taklif etadi.

Yuridik shaxs yoki Xususiy tadbirkor tomonidan quyida bayon etilgan xizmatlarga haq to'lash shartlarini qabul qilishi, ushbu ofertani aksept qiluvchi shaxs Buyurtmachiga aylanadi (**O'zR FKning 4-b. 370-m.ga muvofiq**, oferta aksepti, ofertada bayon etilgan shartlarda shartnomani tuzish bilan barobar). Buyurtmachi Shartnoma tomonlarining biriga aylanadi va mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq, huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan, mazkur Shartnoma matnini diqqat bilan o'qib chiqing, agar shartnomaning qaysidir bandiga rozi bo'lmasangiz, Ijrochi aksept uchun zarur bo'lgan qandaydir harakatlardan voz kechishni yoki Buyurtmachi bilan yakka holda muhokama qilish shartlari asosida shartnoma tuzishni taklif qiladi.

Mazkur ofertaning to'liq va so'zsiz aksepti, Buyurtmachi tomonidan tanlangan xizmatlarga to'lovni amalga oshirishi hisoblanadi. To'lov shartlari mazkur Shartnomaga ilova qilingan maxsus hujjatdagi Spetsifikatsiya ilovasi va narxlar varog'ida aks ettirilgan hamda mazkur Shartnomaning ajralmas qismi sanaladi.

Shartnomani tuzish manzili **Toshkent shahri** hisoblanadi

1 | Shartnoma Predmeti

1. 1. Ijrochi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash talablariga muvofiq, Onlayn NKMni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha kerakli ishlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, shuningdek ularga qo'shimcha xizmatlarni ham ko'rsatadi, Buyurtmachi esa ishni qabul qilib, to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
1. 2. Shartnomaga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarning turi, hajmi va narxi Spetsifikatsiya ilovasi va narxlarda belgilanadi hamda mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
1. 3. Texnik xizmat ko'rsatish uchun Shartnoma tuzilgan vaqtda soz holatda bo'lgan Buyurtmachining Onlayn NKMni qabul qilinadi. Ishlatilgan onlayn NKMLar texnik tekshiruvdan o'tgandan keyin hamda zaruriy holatlarda, Buyurtmachi hisobidan ta'mirlanganidan so'ng qabul qilinadi. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha ishlar Pudratchi asbob-uskunalari yordamida bajariladi. Agar onlayn NKM nosozligini bartaraf qilishning ilojisi bo'lmasa (TXM mutaxassisi xulosasiga ko'ra) yoki Onlayn NKM o'rnatilgan joyda ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun sharoit bo'lmasa, nosoz onlayn NKM Buyurtmachi tomonidan Ijrochi ustaxonasiga keyingi ta'mirlash uchun yetkazib beriladi. Onlayn NKM ustaxonaga yetkazib berilgach va rasmiylashtirilgach, Ijrochi ustaxonasida 5 (besh) ish kunlik muddat davomida ta'mirlash ishlaridan o'tkazilishi kerak.
1. 4. Ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan berilgan kafolat muddati davomida, zavod aybi bilan ishdan chiqqan tarkibiy qismlar Ijrochi tomonidan bepul almashtirib beriladi.
1. 5. Onlayn NKMga texnik xizmat ko'rsatish va/yoki ta'mirlash bilan bog'liq har bir bajarilgan ishda, Ijrochi Buyurtmachining Onlayn NKMga texnik xizmat ko'rsatish jurnaliga tegishli qaydlarni kiritadi yoki Bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma beradi. Xizmatlar ko'rsatilgan hisobot oyidan keyingi 5 (besh) kun ichida Buyurtmachidan xizmat ko'rsatishga doir shikoyatlar kelib tushmagan bo'lsa, ishlar to'liq hajmda bajarilgan hisoblanadi, hamda alohida Dalolatnoma tuzilmasligi ham mumkin.

2

Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2. 1. Buyurtmachi Onlayn NKMni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar Ijrochidan tashqari, boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslar xizmatlaridan foydalanishga haqli emas.
2. 2. Buyurtmachi o'zi haqida kerakli ishonchli ma'lumotlar (rekvizitlar)ni taqdim etishi va ularni tegishli hujjatlarning asl nusxalari yoki ko'chirma nusxalari yordamida tasdiqlashi shart. Agar ko'rsatilgan rekvizitlar o'zgarsa, Buyurtmachi tegishli hisob-kitob hujjatlariga o'zgartirish kiritish uchun, bu haqda Ijrochini zudlik bilan ogohlantirishi shart.
2. 3. Buyurtmachi ishga tushirish-sozlash ishlarida va Onlayn NKMni foydalanishga topshirish haqidagi dalolatnomani rasmiylashtirishda ishtirok etishi zarur.
2. 4. Buyurtmachi foydalanish hujjatlariga muvofiq, Onlayn NKMdan foydalanish qoidalari va shartlariga rioya qilishi, Onlayn NKM bo'yicha foydalanish hujjatlariga muvofiq, Onlayn NKMning sarf materiallari bilan ishlashini ta'minlashi kerak.
2. 5. Onlayn NKMdagi plombalarning butligi uchun Buyurtmachi javobgar sanaladi.
2. 6. Buyurtmachi Onlayn NKMdan faqat u Ijrochi tomonidan texnik xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinganidan va soliq idoralarida ro'yxatdan o'tganidan keyin foydalanishga majbur.
2. 7. Buyurtmachi foydalanish bo'yicha hujjatlardagi talablar va amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq, Onlayn NKM uchun ish joyini jihozlashi, Onlayn NKMda ishlash uchun xodimlarni o'qitishi zarur.
2. 8. Buyurtmachi Onlayn NKMga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash bilan bog'liq hujjatlarni yuritadi, hisobini olib boradi, saqlaydi va hisobdan chiqaradi
2. 9. Buyurtmachi Ijrochining mutaxassislariga onlayn NKMning texnik ko'rik va dasturiy tekshiruvlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi hamda Shartnoma bo'yicha ishlarni sifatli bajarish uchun kerakli sharoitlarni hozirlaydi. Onlayn NKMdan to'g'ri foydalanish bo'yicha Ijrochining ishchilari ko'rsatmalari va tavsiyalarini bajaradi.

2. 10. Buyurtmachi Onlayn NKMDan foydalanish jarayonida aniqlangan har qanday nosozlik, shu jumladan plombaning zararlanishi haqida zudlik bilan Ijrochiga xabar berishi kerak. Agar plomba zararlangan bo'lsa, Onlayn NKMDa boshqa nosozliklar kuzatilsa, shuningdek, Ijrochining ishchilari tomonidan Onlayn NKMDan foydalanishga taqiq qo'yilsa, Onlayn NKMDan foydalanish to'xtatiladi.
2. 11. Buyurtmachi mazkur Shartnoma va Preyskurantlar tomonidan belgilanadigan narx bo'yicha, Ijrochi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lashga majbur. Agar mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmasa, Buyurtmachi Onlayn NKM ishining to'xtatilishini biladi va shunga rozi bo'ladi.
2. 12. Agar Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, Buyurtmachi uning xizmatlaridan foydalanmasa, Buyurtmachi xizmatlar uchun mablag'ni to'liq to'laydi.
2. 13. Buyurtmachi topshirig'iga ko'ra, Ijrochi Onlayn NKMni ishga tushiradi, uni sozlab beradi, barcha bajaradigan vazifalarini nazorat qiladi. Onlayn NKM pasportiga ishga tushirish haqida ma'lumotlarni kiritadi, tegishli hujjatlarda bajarilgan ishlarni qayd qiladi. Buyurtmachi foydalanuvchisiga Onlayn NKMDan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar Onlayn NKM o'rnatilgan va sozlangan kunda tushuntirib beriladi.
2. 14. Ijrochi Onlayn NKMni texnik xizmat ko'rsatish uchun ro'yxatga qo'yganda, ta'mirlash ishlarida, soliq organlaridan hisobdan chiqarganda, Onlayn NKMDan foydalanish mumkin bo'lmay qolgan boshqa vaziyatlarda, zarurat tug'ilsa, Onlayn NKMning sozligi haqida texnik xulosa tuzadi.
2. 15. Ijrochi Onlayn NKMga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ish olib boradi, TX va ta'mirlash ishlari uchun to'lov hisoblarini chiqaradi. Xizmat ko'rsatish ishlari tamomlangach, Ijrochi Buyurtmachiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha Dalolatnomani taqdim etadi. Buyurtmachi Dalolatnomani olgan kundan boshlab, 5 (besh) ish kuni davomida o'zining vakolatli vakili tomonidan imzolangan Dalolatnomani yoki bajarilgan ishlarni asosli rad etish xulosasini Ijrochiga yuborishga majbur. Agar Buyurtmachi imzolangan Dalolatnomani yoki bajarilgan ishlar va/yoki ko'rsatilgan xizmatlarni asosli rad etish xulosasini 5 (besh) ish kuni davomida taqdim etmasa, bajarilgan ishlar va/ yoki ko'rsatilgan xizmatlar, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlarga muvofiq, o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarilgan va Buyurtmachi tomonidan to'liq hajmda qabul qilingan, deb hisoblanadi.

2. 16. Zarurat tug'lsa, Ijrochi Onlayn NKMDan foydalanish va qo'llash masalalari bo'yicha kassirlar hamda Buyurtmachining ishga jalb qilingan mutaxassislarini o'qitishi va maslahat berishi mumkin.
2. 17. Ijrochi Buyurtmachidan Onlayn NKMDan foydalanish masalalari bo'yicha ma'lumotlar va tushuntirishlarni talab qilishga haqli, shuningdek, Buyurtmachiga Onlayn NKM ishida yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatadi va ularni bartaraf etish yo'llarini tushuntirgan holda ko'rsatmalar beradi.
2. 18. Agar mazkur Shartnoma shartlari Buyurtmachi tomonidan bajarilmasa, Onlayn NKM ishining sifati uchun Ijrochi javobgar hisoblanmaydi.

3 | **Ishlarni bajarish va hisob-kitob qilish tartibi**

3. 1. Zarurat tug'lsa, Buyurtmachi Ijrochiga Shartnoma bo'yicha, kerakli xizmatlar ro'yxatini kelishib olish va tasdiqlash uchun, Onlayn NKMni taqdim etadi va boshlang'ich xizmatlar paketi uchun to'lovni amalga oshiradi. Bajarilgan ishlar va/yoki ko'rsatilgan xizmat turlari va ularga belgilangan narx Shartnomaning Spetsifikatsiya ilovasida ko'rsatiladi.
3. 2. Buyurtmachining texnik xizmat ko'rsatish va/yoki ta'mirlash ishlari bo'yicha to'lovi kelishilgan narxlarda bir kalendar oyi, chorak, yarim yillik, bir yil uchun amalga oshiriladi.
3. 3. Ko'rsatilgan xizmatlarning birinchi oyi uchun to'lov Ijrochi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, Ijrochi hisob raqamiga 100%lik oldindan to'lov o'tkazish orqali, hisob qo'yilgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni davomida aomalga oshiriladi. Keyingi oylar uchun to'lov bir oylik hisob davri uchun oldingi to'lov muddati tugaguniga qadar 100% oldindan to'lash orqali amalga oshiriladi. Buyurtmachi bir nechta oy uchun dastlabki to'lovni amalga oshirishga haqli. Mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov naqdsiz ko'rinishda, 15%lik QQSni qo'shgan holda to'lanadi. Hisob-kitob O'zbekiston Respublikasi so'mida amalga oshiriladi. Buyurtmachi hisob-raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bankning vakillik hisobvarag'idan pul mablag'lari yechilib, Ijrochining hisob raqami va boshqa rekvizitlariga tushgan sana to'lov sanasi hisoblanadi. Ijrochi talabiga ko'ra, Buyurtmachi bank tomonidan berilgan va amaliyotga qabul qilinganlik belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasi nusxasini taqdim etadi.

3. 4. Onlayn NKMga texnik xizmat ko'rsatish va/yoki ta'mirlash bo'yicha ishlar narxi shartnomaning bir qismi hisoblangan ilovada ko'rsatilgan Ijrochining amaldagi narxlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun narxlar Ijrochining rasmiy sayti **www.support24.uz** da joylashtirilgan. Narxlar Ijrochi tomonidan mustaqil belgilanadi. Ijrochi tarif rejalari, xizmatlar, xizmatlar to'plamiga bo'lgan narxlarni o'zgartirishga haqli, shuningdek, xizmatlarni taqdim etishning narxga oid boshqa shartlarini belgilashi mumkin. Faqat buning uchun, ushbu o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kalendar kunidan oldin Ijrochining rasmiy sayti **www.support24.uz** da tegishli ogohlantirish xabari joylashtirilishi kerak. Narxlar chorakda bir marta o'zgartirilishi mumkin.
3. 5. Sarf materiallari, tiklash uchun o'tkaziladigan ta'mirlash ishlari narxi texnik xizmat ko'rsatish narxiga kirmaydi.
3. 6. Ijrochi yangi xizmatlarni joriy etish va/yoki amaldagi xizmatlarga o'zgartirish kiritish yordamida, Preyskurantga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli. Bu haqda Ijrochining rasmiy sayti **www.support24.uz** da tegishli e'lon orqali ma'lum qilinadi
3. 7. Ijrochi xizmatlari Buyurtmachi tomonidan to'liq ravishda to'lanadi.
3. 8. Agar Shartnomaning 3.3-b.dagi Buyurtmachi majburiyatlarida belgilangan holda, xizmatlarni Buyurtma qilgan inson tomonidan Ijrochiga 100%lik oldindan to'lov amalga oshirilmasa, Ijrochi Buyurtmachiga xizmat ko'rsatishni tugatish, Onlayn NKM ishini to'xtatishga haqli. Xizmat ko'rsatishni tugatish, Onlayn NKM ishini to'xtatish Buyurtmachining Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq bajarishiga qadar amalga oshiriladi.
3. 9. Agar to'lov davri boshlanishidan 10 kalendar kunidan ortiq vaqt davomida Ijrochi xizmati uchun to'lov qilinmagan bo'lsa, Ijrochi sudga murojaat qilmagan holda, Buyurtmachiga xabar berish orqali, bir tomonlama Shartnomani bekor qilishga haqli.
3. 10. Shartnoma shartlarini bajarishda tuziladigan moliyaviy hujjatlar Buyurtmachiga goh pochta jo'natmasi, goh ataylab, goh shaxsiy kabinet orqali va kelishilgan tartibda boshqa usulda jo'natilishi mumkin

4 | Shartnomaning amal qilish muddati

4. 1. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan aksept qilingandan so'ng kuchga kiradi va bekor qilinganda tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargan holatidagina o'z kuchini yo'qotadi.
4. 2. Bajaruvchi Shartnomaga o'z Saytida yangi tahrirni e'lon qilish yo'li bilan istalgan vaqtda o'zgartirish kiritish huquqiga ega.
4. 3. Shartnoma istalgan vaqtda bekor qilish muddatidan 15 (o'n besh) kalendar kuni avval yozma ogohlantirish orqali muddatidan avval bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.
4. 4. Shartnoma tomonlarning o'zaro kelishuvi yoki vakolatli organlarning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asoslangan qaroriga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

5 | Maxfiylik

5. 1. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining 16-aprel 2019-yildagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni va mazkur Oferta shartnomasiga muvofiq qayta ishlanadi.
5. 2. Buyurtmachi Ijrochi va uning vakolatli xodimiga o'z shaxsiy ma'lumotlarini (famiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, pasport ma'lumotlari, jinsi, ish, mobil telefonlari, elektron pochta manzili, yuridik shaxs, xususiy tadbirkor to'g'risidagi ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari, Buyurtmachi manzili, marketing statistika tadqiqotlarini o'tkazish, xizmat sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, axborotni tarqatish va Shartnomani rasmiylashtirish vaqtida ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar) qayta ishlashga to'g'ridan-to'g'ri rozilik beradi. Bunday holda Buyurtmachi tomonidan erkin xohish bildirishni qo'shimcha tasdiqlash uchun yozma shakl yoki boshqa dalillar Ijrochi uchun shart emas. Buyurtmachi uning roziligi aniq, xabardor qilingan va ongli ekanligini tasdiqlaydi.

5. 3. Buyurtmachining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligi uni bekor qilgunga qadar amal qiladi, uni bekor qilish uchun, Ijrochining ma'lumotlardan foydalanishni to'xtatish sanasiga qadar kamida 30 (o'ttiz) kun oldin, Ijrochi manziliga xat yuborish zarur.
5. 4. Buyurtmachining taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlari quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida tuzilgan mazkur Shartnoma yoki boshqa shartnomalarni bajarish va amalga oshirish uchun, Buyurtmachi savollariga javob berish uchun, shu jumladan, Saytdagi onlaynchat orqali, Buyurtmachiga xizmatlarni ko'rsatish munosabati bilan yordam ko'rsatish uchun, Saytda ko'rsatilgan xizmatlar haqida Buyurtmachiga axborot berish uchun, shuningdek, yuqorida tilga olingan Shartnomani o'z ichiga olgan holda, tijorat ma'lumotlarini tarqatish uchun, shu jumladan, elektron pochta, sms-xabarlar, messenjerlardagi xabarlar orqali yoki kommunikatsiyaning boshqa o'xshash vositalarini qo'llagan holda, telefon qo'ng'iroqlari orqali.
5. 5. Agar Buyurtmachining shaxsiy ma'lumotlari mazkur ofertada ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, Ijrochi tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishi mumkin va bunga Buyurtmachining o'zi rozilik berishi kerak. Buyurtmachi rozilik beradi va Ijrochi hamda uning vakillariga shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga ruxsat beradi.
5. 6. Agar Buyurtmachi uchinchi tomonning ma'lumotlarini taqdim etsa, u holda bunday ma'lumotlardan foydalanish haqida uchinchi tomonni xabardor qilish hamda uning roziligini olish uchun Buyurtmachining o'zi javobgar hisoblanadi.
5. 7. Buyurtmachi taqdim etgan ma'lumotlar avtomatlashtirish vositalari yordamida hamda bunday vositalarsiz ham qayta ishlanishi mumkin.
5. 8. Ma'lumot tarqalib ketishini oldini olish va bunday xavfni kamaytirish uchun Ijrochi axborot xavfsizligining barcha texnik va tashkiliy choralarni ko'radi.
5. 9. Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida Ijrochi Buyurtmachi bilan bo'lgan telefondagi suhbatlarini yozib olishga haqli.
5. 10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga ko'ra, axborotni oshkor etish noqonuniy hisoblanmaydi. Ijrochi Buyurtmachi oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun, Ijrochi bilan kelishuv asosida ish olib boruvchi uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni taqdim etishi ham qonun buzilish holatiga kirmaydi. Buyurtmachi Saytda barcha uchun ochiq tarzda qoldirgan ma'lumotlari uchun Ijrochi javobgar emas.

6 Fors-major

6. 1. Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha quyidagi vaziyatlarda majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydi: fors-major holatlari: yong'in, suv toshqini, zilzila, harbiy harakatlar, Shartnoma tuzilganidan keyin yuz bergan qonunchilikdagi o'zgarishlar kabi, faqat ushbu vaziyatlar Tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir o'tkazgan bo'lishi kerak. Bu holda shartnoma majburiyatlarini bajarish muddati ko'rsatilgan vaziyatlar tugagunga qadar uzaytiriladi.
6. 2. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan Tomon, boshqa Tomonni ko'rsatilgan vaziyatning boshlanishi va tugashi haqida ogohlantiradi, bu haqda kutilmagan vaziyat sodir bo'lgan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kundan kechiktirmasdan xabar berish shart, shuningdek, vakolatli manbalarning forsmajor holatini tasdiqlovchi hujjatlari taqdim etilishi kerak. Fors-major holatlari haqida o'z vaqtida xabar bermaslik Tomonni ko'rsatilgan vaziyatlar sababi tufayli, majburiyatini bajarish mas'uliyatidan ozod qilmaydi.
6. 3. Agar ko'rsatilgan fors-major vaziyatlari 3 (uch) oydan ortiq davom etsa, Tomonlarning har biri Shartnoma yoki uning qismlarini bekor qilishga haqli. Bu holda Tomonlar ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni davomida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

7 Nizolarni hal etish tartibi

7. 1. Tomonlar mazkur Shartnoma doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan munozarali masalalarni hal qilish uchun barcha choralarni ko'radi va buni muzokaralar orqali amalga oshiradi. Shikoyatga javob berish muddati 10 (o'n) ish kunini tashkil etadi.
7. 2. Agar Tomonlar munozarali masalalarni muzokaralar yordamida hal qila olmasa, kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

8 Tomonlarning javobgarligi

8. 1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarmagan yoki umuman bajarmagan tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar hisoblanadi.
8. 2. Agar foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan, Onlayn NKMDan foydalanish yoki saqlash bo'yicha qoidalar buzilsa, Buyurtmachi aybi bilan plomba butligiga zarar yetsa, shuningdek, Shartnoma shartlariga rioya etilmasa, Onlayn NKMDan foydalanishning kafolat muddatlari Ijrochi tomonidan bekor qilinadi, Shartnoma esa bir tomonlama bekor bo'ladi. Bu holda mazkur Shartnoma bo'yicha Ijrochi hisob raqamida qolgan pul mablag'lari qaytarib berilmaydi.
8. 3. Buyurtmachi tashabbusi bilan Shartnoma bekor qilinsa, to'langan joriy davr uchun pullar qaytarib berilmaydi. Buyurtmachining Shartnomani bekor qilish haqidagi bildirish xati yozma shaklda Ijrochiga taqdim etiladi.

9 Kafolatlar

9. 1. Ijrochi Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.
9. 2. Buyurtmachi mazkur Ofertaning shartlariga rozilik berish va qabul qilish orqali, Ijrochini quyidagilarga ishontiradi va kafolat beradi:
 9. 2. 1. Buyurtmachi www.support24.uz saytida foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tganda, ishonchli ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni va Xizmatlar bo'yicha to'lov hujjatlarini rasmiylashtirishda ham ishonchli ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etgan.
 9. 2. 2. Buyurtmachi Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.

10

Boshqa shartlar

10. 1. Xizmat ko'rsatish shartlari va tuzilishini kengaytirish, o'zgartirish, Ijrochi tomonidan taqdim etiladigan yangi xizmatlarning paydo bo'lishi, Oferta shartnomasini o'zgartirish, xizmatlar narxini o'zgartirish Ijrochi tomonidan bir tomonlama amalga oshiriladi va Ijrochining rasmiy sayti **www.support24.uz** da tegishli o'zgarishlar e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kun o'tgandan keyin kuchga kiradi. Ijrochi tegishli o'zgarishlar amalga kiritilgunga qadar, 10 (o'n) kalendar kunidan kechiktirmasdan, rasmiy sayt **www.support24.uz**da e'lonni joylashtirish orqali Buyurtmachini ogoh qiladi.
10. 2. Agar Buyurtmachi Ijrochiga 10 (o'n) kalendar kuni davomida o'zgargan xizmat ko'rsatish shartlarini qabul qilishni rad etish haqidagi yozma javobini yo'llamasa, Shartnoma yangi shartlar bo'yicha uzaytirilgan hisoblanadi.
10. 3. Buyurtmachi yangi shartlarni qabul qilishni rad esa, Ijrochining yangi xizmat ko'rsatish shartlari kuchga kirgan vaqtdan boshlab Shartnoma bekor qilinadi. Bu holda Tomonlar 5 (besh) ish kuni davomida o'zaro hisob-kitobni amalga oshiradi.
10. 4. Ijrochi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun, uchinchi shaxslarni jalb qilishga haqli.
10. 5. Shartnoma bo'yicha barcha xatlar Tomonlarning ro'yxatdan o'tish ma'lumotlarida ko'rsatilgan manzillari bo'yicha faks/pochta/elektron pochta orqali jo'natiladi. Tomonlar Shartnomani aksept qilish uchun, vakolatli shaxslarning faksimil imzosidan foydalanish imkoniyati va shaxsiy imzo bilan barobar, shaxsiy imzo analogi sifatida boshqa hujjatlarni imzolash haqida kelishib olishadi.
10. 6. Tomonlar to'lov hisoblari, qabul qilish-topshirish bilan bog'liq va boshqa hujjatlar Tomonlar tomonidan elektron hujjatlar aylanmasi tizimidan foydalanish vositasida imzolanishi va yuborilishiga rozilik beradi, bu holda hujjatlarni qog'oz ko'rinishida ko'paytirish shart emas.
10. 7. Yuridik, haqiqiy manzillar yoki xizmat ko'rsatish banki o'zgarsa, Tomonlar 10 (o'n) kun muddatda bu haqda bir-birini ogoh qilishlari kerak.

10. 8. Mazkur Oferta shartnomasida nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida ish ko'radi.
10. 9. Mazkur Oferta shartnomasining qaysidir qoidasi yoki qismining yaroqsiz deb topilishi, Oferta shartnomasining qolgan boshqa qoidalari yoki qismlarining yaroqsiz ekanligidan dalolat bermaydi.
10. 10. Buyurtmachi Shartnomani aksept qilganda, Shartnomaning barcha shartlariga so'zsiz roziligini, shuningdek, Shartnomani va xizmat ko'rsatish narxlari, xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish shartlari, Ijrochi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqanligini tasdiqlaydi.



Ijrochi manzili va rekvizitlari

«SPECIAL TEXNO SOFT» MCHJ

100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.,

M. Ulug'bek ko'ch. 65

STIR: 306 351 564

h/r: 2020 8000 9050 6595 0001

«Kapitalbank» ATB Toshkent sh.

FAA: 01088, Bank STIRi: 207 127 843

IFUT: 58290

tel: +998 (71) 200-10-70

e-mail: info@support24.uz

www.support24.uz

Direktor M. M. Inoyatov